



## XALQ DEPUTATLARI G‘OZG‘ON SHAHAR KENGASHINING QARORI

2022 - yil 5 - dekabr

VI-38-130-5-210-K/22

G'ozg'on shahar xokimligi

### **Shahar mahalliy budjetining 2022-yil 3-chorak daromadlar rejasining ortiqcha bajarilgan qismi hisobidan mablag‘lar ajratish to‘g‘risida.**

O‘zbekiston Respublikasi “Budjet kodeksi” ning 126-moddasiga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Kengashining 2022-yil 8-apreldagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasi Respublika budjetining, viloyatlar viloyat budjetlarining, Toshkent shahri shahar budjetining, tumanlar va shaharlar budjetlarining qo‘shimcha manbalarini aniqlash va ulardan foydalanishni tartibga solish to‘g‘risida”gi KQ-331-IV-sonli qaroriga asosan tasdiqlangan namunaviy Nizomga muvofiq, shahar moliya bo‘limining 2022-yil 10-noyabrdagi 01-12-238/20-07-38/111-sonli xatini inobatga olib, shahar mahalliy budjetining 2022-yil 3-chorak daromadlar rejasining ortiqcha bajarilgan qismi hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6,25-moddalariga asosan, xalq duputatlari G‘ozg‘on shahar Kengashi

### **QAROR QILADI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmoyishlarida, Hukumat qarorlari va bayonlarida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta‘minlash hamda budjet tashkilotlari va muassalari, budjetdan mablag‘ oluvchilarning murojaatlarida ko‘rsatib o‘tilgan tadbirlarni mablag‘ bilan ta‘minlash maqsadida shahar mahalliy budjetining 2022-yil 3-chorak daromadlar rejasining ortiqcha bajarilgan qismi hisobidan **ilovaga** muvofiq tegishli tashkilot va muassasalarga mablag‘ ajratilsin.

2. Xalq deputatlari G‘ozg‘on shahar Kengashi kotibiyati (F.Qo‘shaqov) shahar mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan mablag‘ ajratilgan budjet tashkilotlari va budjetdan mablag‘ oluvchilarning ajratilgan mablag‘lardan samarali foydalanilishi hamda erishilgan natijalari to‘g‘rsidagi hisobotlarini xalq deputatlari shahar Kengashi sessiyalarida eshitib borilishini ta‘minlasin.

3. Budjet tashkilotlari va muassalari hamda budjetdan mablag‘ oluvchilar

ajratilgan mablag‘dan maqsadli va samarali foydalanilishini ta‘minlasin.

**4.** Shahar Moliya bo‘limi (B.Qobilov), shahar G‘aznachilik bo‘linmasi (X.Muhammadjonov)larga:

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq maqsadli va samarali foydalanilishini nazorat qilsin.

**5.** Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (O.Raxmatov) va xalq deputatlari shahar Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha (D.Egamova) doimiy komissiya zimmasiga yuklansin.

**Kengash raisi**



**A.Bazarov**

Xalq deputatlari G'ozg'on shahar Kengashining  
2022 yil 5 dekabrda  
VI-38-130-5-210-K/22-son qaroriga  
1-ilova

**Shahar mahalliy budjetining 2022-yil III-chorak daromadlar rejasining ortiqcha bajarilgan qismi hisobidan yo'naltirilgan mablag'lar.**

T/R	Tashkilot va muassasa nomi	Maqsadi	Ajratilgan mablag' (ming. so'mda)	Izoh
1.	Shahar hokimligiga	“Yoshlar daftari” jamg'armasiga	21 587	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.03.2021 yildagi PQ-5020-son Qarori
2.		“Ayollar daftari” jamg'armasiga	21 587	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.01.2022 yildagi PQ-92-son Qarori
3.		Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish maqsadida “Fuqarolar tashabbusi” jamg'armasiga	43 175	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 13.04.2021 yildagi PQ-5072-son Qarori
4.		Ochilov Suponboyning oktabr, noyabr va dekabr oylari uchun moddiy yordam puli uchun	4 500	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.08.2021 yildagi PQ-5216-sonli qarori va Navoiy viloyati hokimining 16.08.2021 yildagi 39-5-0-Q/21-sonli qarori
5.		O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tizimining tashkil topganligining 31 yilligi 25-oktabr “O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar organlari xodimlari kuni” bayrami munosabati bilan shaharda ichki ishlar organlari xodimlari kuni bayrami tabdirlarini o'tkazish xarajatlari uchun	7 000	Shahar hokimligi bosh mutaxassisi O.G'afforovning 2022-yil 30-oktabrdagi bildirgisi
6.		Shahar hokimligi ish faoliyati uchun konselyariya tovarlari, oq qog'oz sotib olish xarajatlari uchun	1 250	Shahar hokimligi xo'jalik ishlari bo'yicha mudiri F.Boynazarovning 2022-yil 10-noyabrdagi bildirgisi
7.		G'ozg'on shahar sport maktabiga	Sport maktabi tarbiyalanuvchi sportchilarga sport musobaqalariga ishtirok etishlari 10 dona kurash yaktahlari sotib olish xarajatlari uchun	6 000

8.	Shahar Obodonlashtirish boshqarmasiga	“Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida 2022-yil kuz mavsumida manzarali, mevali daraxt va butalar ko‘chatlarini ekish maqsadida ko‘chatlar xarid qilish uchun	15 000	Shahar Obodonlashtirish boshqarmasining 2022-yil 31-oktabrdagi 01-01/50-sonli xati
9.	Mahalla va nuroniylarni qo‘llab quvvatlash bo‘limiga	Shahar fuqarolar yig‘inlari tomonidan tanlab olingan ko‘chaboshilar va uyboshilarga kompensatsiya to‘lovlarini to‘lab berish uchun	3 000	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 99-sonli qarori
10.		“Marmarobod” MFY raisi M.To‘xsanova va “Guliston” MFY raisi E.Jumayevlarni moddiy rag‘batlantirish uchun	10 000	Shahar Mahalla va nuroniylarni qo‘llab quvvatlash bo‘limining 2022-yil 31-oktabrdagi 186-sonli xati
11.	Xalq ta’limi bo‘limiga	Shahardagi umumta’lim maktablarining moddiy texnik bazasini mustahkamlash uchun	10 801	Shahar xalq ta’limi bo‘limining 2022-yil 4-oktabrdagi 01-01/527-sonli xati
<b>JAMI</b>		<b>X</b>	<b>143 900</b>	<b>X</b>